O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

Ixtiyor ERMATOV

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI

fanidan o‘quv kontenti

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

Guliston – 2026

Ermatov I.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv kontenti. Guliston – 2026. – 24 b.

Kontent – 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavri yo‘nalishida tahsil olayotgan universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti talabalari uchun tayyorlangan. Kontentda o‘zbek tilining lug‘at tarkibi (leksikasi), leksik tizimi jahon va o‘zbek tilshunosligining so‘nggi yillarda erishgan yutuqlari asosida yoritildi. Kontent – leksikologiyaning obyekti va predmeti, so‘z va uning ma’nosi, so‘z – tilning asosiy va leksikaning markaziy birligi sifatida, leksikaning sistemalilik xarakteri haqida, lug‘aviy semasiologiya haqida ma’lumot beriladi.

Kontent universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavrlariga mo‘ljallangan. Undan tilshunoslik masalalari bilan shug‘ullanuvchi ilmiy xodimlar, magistrlar va aspirantlar ham foydalanishi mumkin.

M a s ’ u l m u h a r r i r:
filologiya fanlari nomzodi, dotsent J.Abdullayev

T a q r i z ch i l a r:
filologiya fanlari doktori, dotsent A.Uralov
filologiya fanlari nomzodi, dotsent H.Yodgorov

LEKSIKOLOGIYA

Leksikologiyaning obyekti va predmeti haqida

Har qanday til qurilishida so‘z va so‘zlar majmuasi muhim rol o‘ynaydi. Zero tilni so‘zlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Shu sababli bo‘lsa kerak, Kopengagen tilshunoslik maktabining asoschilaridan biri L.Yelmslyev tilni bir butun organizmga, so‘zlar majmuasini, ya’ni lug‘at tarkibini esa tilning tanasiga o‘xshatgan edi.

Leksikologiya – tilshunoslikning yirik va asosiy sohalaridan biri. Bu atama grek tilidan olingan: “lexikos” so‘z, “logos” ta’limot, ya’ni “so‘z haqida so‘z”, “so‘z haqida ta’limot” ma’nolarini bildiradi. Shuning uchun leksikologiyada tilning so‘z boyligi o‘rganiladi. Uni ***lug‘at tarkibi*** yoki ***leksika*** ham deyiladi.

Leksika atamasi ikki ma’noda ishlatiladi: 1) tildagi barcha so‘zlar yig‘indisi, majmuasi, ya’ni tilning lug‘at tarkibi; 2) tilshunoslikning ana shu lisoniy boylikni o‘rganuvchi sohasi, ya’ni fan tarmog‘i (bu o‘rinda leksika – ***leksikologiya*** atamasining dublet muqobili).

Tilning boyligi uning lug‘at tarkibidagi (leksikasidagi) so‘zlar miqdori bilan belgilanadi. Unda so‘zlar miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, til ham shuncha boy bo‘ladi. Lug‘at tarkibi (leksika) davrlar osha o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarish undagi so‘zlar miqdorining o‘zgarishi bilan belgilanadi. Masalan, 1981-yili Moskvada ikki jildda nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da o‘zbek adabiy tilida mavjud 60 ming so‘z sharhlangan bo‘lsa, 2006 – 2008 yillarda Toshkentda besh jildda nashr etilgan “Izohli lug‘at”da 80 mingdan ortiq so‘z va so‘zga tenglashuvchi lisoniy birliklar sharhlangan. Demak, hozirgi o‘zbek leksikologiyasi 80 mingdan ortiq so‘zni o‘z ichiga olgan lug‘at tarkibi (leksikasi)ni o‘rganadi.

Leksikologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida bir qancha ichki bo‘lim va tarmoqlardan tarkib topadi. Semasiologiya, onomastika, etimologiya uning asosiy bo‘limlaridir. Shuningdek, leksikologiyaning hozirgi (tasviriy)

leksikologiya, tarixiy leksikologiya, dialektal leksikologiya, qiyosiy leksikologiya, sistem-struktur leksikologiya kabi turlari mavjud.

Bu bo‘lim va turlarning har biri o‘zining alohida-alohida o‘rganish obyektiga ega. Chunonchi, semasiologiyada lug‘aviy birliklarning mazmun jabhasi bilan aloqador masalalari o‘rganiladi. Shakl va ma’no nomutanosibligi (asimmetriyasi) bilan bog‘liq ma’nodoshlik, ohangdoshlik, shakldoshlik leksikologiyaning ana shu bo‘limi mundarijasiga kiradi.

Nomlash, atash jarayonlari va ularning natijasi bilan aloqador barcha masalalar, xususan, atoqli otlar va ularning vujudga kelishi kabilar onomastikaning o‘rganish obyektidir.

Leksikologiyaning turlari ham biri boshqasidan o‘z mundarijasi va uning tavsifi bilan farq qiladi. Chunonchi, tasviriy (hozirgi) leksikologiyada tilning muayyan davrga xos lug‘aviy birliklari tizimi o‘rganiladi. Leksikologiyaning bu turi sinxron leksikologiya deb ham ataladi. Tarixiy leksikologiya – tasviriy (sinxron) leksikologiyaning aksi. Til tarixiy taraqqiyotining o‘tmish bilan bog‘liq lug‘at tarkibi leksikologiyaning shu turida o‘rganiladi. Uni diaxron leksikologiya deb ham ataladi.

Qiyosiy leksikologiya o‘zaro qardosh yoxud qardosh bo‘lmagan tillarning lug‘at tarkibini, uning muayyan bir qatlamini qiyosan o‘rganuvchi sohadir. Qiyosiy leksikologiyaning ham tasviriy (sinxron) va tarixiy (diaxron) jabhalari mavjud. Sistem-struktur leksikologiya lug‘aviy hodisalarning bevosita kuzatishda bo‘lmagan mavhum va sof ilmiy bosqichga xos tomonlarini o‘rganadi.

Shunday qilib, leksikologiya tilning o‘ziga xos tizim xarakterini kasb etuvchi lug‘at tarkibini o‘rganadi. Sistem, ya’ni tizim xarakterini kasb etuvchi lug‘at tarkibining markazida so‘z turadi. Zero, so‘z leksikologiya o‘rganadigan asosiy birlik hamdir.

So‘zlar majmuasidan iborat tizim, sistema, biri boshqasi bilan organik bog‘lilikdagi uch ichki “qatlam”dan tarkib topadi. Bu “qatlam”lar *mikroqurilma*, *medioqurilma* va *makroqurilma* atamalari bilan nomlanadi.

Mikroqurilma – bu ayrim so‘zlar anglatgan har xil ma’nolarning o‘zaro munosabatlaridir. Tildagi polisemantik so‘zlar va ular anglatgan ma’nolar bir butunlikda lug‘at tarkibining mikroqurilmalari hisoblanadi.

Medioqurilma tilning shakl va mazmun nomutanosibligini ro‘yobga chiqaruvchi omonimiya, paronimiya, omografiya, omofoniya, sinonimiya va antonimiya singari hodisalar munosabatini o‘z ichiga oladi.

Makroqurilma – bu lug‘at tarkibidagi mazmuniy (sinonimiya) va mavzuiy guruhlardan tarkib topadi. So‘zlarning muayyan bir ma’no atrofida guruhlanishi, masalan, *sekund, minut, soat, ertalab, tush payti* va b. vaqt ma’nosi doirasida tutashuvchi mikroguruhdir. Bunday mikroguruhlar mazmuniy maydon deb ham ataladi. So‘zlarning muayyan mavzu doirasida birlashuvi, tutashuvi ham makroqurilmaning alohida ko‘rinishi sanaladi. Masalan, *ot, ho‘kiz, echki, qo‘y* va sh.k. uy hayvonlari mavzuiy (tematik) guruhiga mansub so‘zlardir.

Xullas, leksikologiya tildagi so‘zlarni, ularning majmuasini turli tomonlardan o‘rganuvchi sohadir. U tilshunoslikning boshqa barcha sohalari bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Xususan, fonetika, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, stilistika va uning hodisalarini so‘zlarsiz tasavvur etish qiyin: fonetikada so‘zlarning tovush tarkibi o‘rganilsa, so‘z yasalishida yangi lug‘aviy birliklarning hosil bo‘lishi o‘rganiladi. Morfologiyada lug‘aviy birliklar mauayyan shaklga kiradi va boshqa so‘zlar bilan munosabatga kirish imkoniyati paydo bo‘ladi. So‘zlar sintaksis ixtiyoriga o‘tgach, kommunikatsiya jarayonida ishtirok etadi, nutqning muayyan mantiqiy-grammatik qiymat kasb etuvchi birligiga aylanadi. Stilistikani so‘zlarning ma’nodosh guruhlari (sinonimik uyalar)siz tasavvur etish qiyin. Ma’nodoshlik uyasidagi muqobil lug‘aviy birliklar nutqning turli uslublariga ko‘ra xoslangan bo‘ladi: bir uslub uchun xoslangan so‘zlarni nutqning boshqa uslubida qo‘llab bo‘lmaydi. Bularning bari leksikologiyaning tilshunoslikning boshqa barcha sohalari bilan aloqasi va munosabatini belgilaydi.

SO‘Z – TILNING ASOSIY VA LEKSIKANING MARKAZIY BIRLIGI SIFATIDA

Darhaqiqat, tilni so‘zlarsiz tasavvur etish qiyin. U tilning asosiy birligi sanaladi, leksikada, ya’ni lug‘at tarkibida esa, u markaziy hodisadir.

So‘z nutq tovushlarning ma’lum bir izchillikda qo‘shilishidan tarkib topadi. Bu izchillik til jamoasi va uning har bir a’zosi uchun mutlaq va mushtarakdir. Masalan, *ota, ishlamoq* so‘zlari o‘zbek millatiga mansub barcha shaxslar uchun, ularning dunyoning qaysi burchagida yashashlaridan qat’iy nazar, *o-t-a, i-sh-l-a-m-o-q* tarzida eshitiladi, shu tarzda aytiladi. Shuningdek, *ota, ishlamoq* so‘zlarining ma’nosi ham shu millat vakillarining barchasi uchun mushtarak uqiladi.

So‘zlar orqali bizni qurshab turgan obyektiv borliq narsa-hodisalari lisoniy in’ikos etiladi. Bu jarayonda obyektiv borliq narsa-hodisalari va ulararo har xil tabiiy va notabiiy munosabatlar ham, ularning har biriga xos xususiyatlar ham lisoniy shaklga ega bo‘ladi. Masalan, “*Bu yil g‘alladan mo‘l hosil olindi*” gapida *g‘alla* so‘zi real borliq hodisasini anglatishi jihatidan shu gap tarkibidagi boshqa so‘zlardan (bu yil, mo‘l, hosil, olindi) farq qiladi. Biroq bu so‘zlarning har biri “g‘alla” so‘zi anglatgan tushuncha bilan turli jihatlardan munosabatdosh.

Qanday tavsifda bo‘lishidan qat’iy nazar, so‘zlar orqali borliq narsa-hodisalari va ularning tabiiy belgi-xususiyatlari ataladi, nomga ega bo‘ladi. So‘z borliq narsa-hodisalarini umumlashtirgan holda ataydi. Masalan, *kitob* so‘zi orqali badiiy, ilmiy, texnikaviy, xullas, barcha tur va janrdagi asarlar nomlanaveradi.

Daraxt so‘zi orqali ham shunday. Mevalimi, mevasizmi, xonakilashganmi, xonakilashmaganmi – bari bir, ko‘p yillik “o‘simlik”larning barchasiga tegishli nom *daraxt* bo‘laveradi. Yoki “*yurmoq”* so‘zini olaylik. Bu so‘z orqali insonga xosmi, hayvonga xosmi yoki biror-bir naqliyot vositasi (masalan, avtomobil, poyezd, arava va b.) – predmetga xosmi, *“oldga qarab siljish”* ma’nosidagi harakat atalaveradi *(Bola yurdi. Avtomobil yurdi. Poyezd yurdi. Arava yurdi* va b.). Bu narsa, ya’ni borliq narsa-hodisalari va ularning o‘zaro munosabatlarini atash, nomlash so‘z zimmasidagi asosiy lisoniy vazifa sanaladi va u atamalilik deyiladi. Atamalilik ***nominativlik*** deb ham yuritiladi. Demak, so‘z tilda atamalilik vazifasini bajaruvchi lisoniy birlikdir.

Atamalilik so‘z ma’nosi bilan uyg‘un tushunchadir. Atash orqali nimanidir anglaymiz, tasavvur etamiz. Tasavvur etilgan va anglashilgan ana shu “narsa” so‘z ma’nosidir. Masalan, *kitob, qalam* deyilganda, shu nomlar zamiriga “*mutolaa (o‘qish) jarayonida xizmat qiluvchi vosita (predmet)”, “yozish, chizish quroli”* singari tasavvurlar singishgan bo‘ladi. Bu tasavvurlar *kitob* va *qalam* so‘zlarining ma’nosidir.

Obyektiv borliq narsa-hodisalari nomlanganda, shu narsa-hodisalarning ayrim jihatlari nom (so‘z) va uning ma’nosi uchun asos vazifasini o‘taydi. So‘z ma’nosi uchun asos bo‘lgan bu jihat “ichki forma” deb yuritiladi. Masalan, *qizilishton* nomi bilan yuritiluvchi qush bor. Uning qornidan pastki qismi qizil rangda bo‘lganligi uchun, bu rang shu qushning nomi va uning ma’nosi uchun asos vazifasini bajargan. Shuningdek, qumirsqalardan biri “*qirqoyoq”* deb ataladi. Bu nom bilan ataluvchi mayda jonivorning oyoqlari, garchand qirqta bo‘lmasa-da, ko‘p. Oyoqlari miqdorining ko‘pligi shu qumirsqaning nomi va ma’nosiga asos bo‘lgan.

“Ichki forma” so‘z ma’no qurilishida mutlaq emas. U nomlash jarayonining dastlabki etapidagina mavjud va aniq anglashiladi. Vaqtlar o‘tishi bilan, so‘zlarning “ichki forma”si unutiladi. Masalan, *qush, suv, yemoq, ichmoq, ish, uy, o‘t, osh* va h.k. so‘zlarning nomlanishida shu so‘zlar nomlagan narsa va jarayonlarning qaysi jihatlari asosga olinganligi ma’lum emas, ular unutilgan. “Ichki forma” yasama so‘zlardagina aniq tasavvur etiladi. Masalan, *temir yo‘l* so‘zining shu so‘z atatgan narsa – predmetning material jihati asosida vujudga kelganligini sezish qiyin emas. Yoki *qalamdon* so‘zining paydo bo‘lishi va anglatgan ma’nosida “*qalam saqlanadigan idish”* uning “ichki forma”si vazifasini bajarganligi aniq va ravshan.

Demak, “ichki forma” so‘zning atash jarayonidagi doimiy, mutlaq tushuncha emas. Bu tushuncha real ma’no tushunchasi bilan almashinib turadi. Real ma’no deganda, so‘zning til jamoasining har bir a’zosi tomonidan bir xil tasavvur etiladigan mushtarak ma’nosi tushuniladi. Real ma’no sinxron xarakterga ega bo‘ladi. Masalan, *og‘och* so‘zi o‘tgan asrlarda *daraxt* so‘zi anglatgan ma’noda

ishlatilgan. Hozirgi vaqtda bu so‘z *yog‘och* shaklida daraxtlarning qurilish uchun ishlatiladigan quruq shakli ma’nosida qo‘llanadi va barcha tomonidan ayni shu ma’noda idrok qilinadi. Tilda “ichki formasi” xiralashib, tub (asl, tarixiy) ma’nosi unutilgan so‘zlar nihoyatda ko‘p. Ular etimologik tahlil yo‘li bilan tiklanadi (bu haqda darslikning “Etimologiya” bahsida alohida ma’lumot beriladi).

So‘z – tilning asosiy birligi. Buning boisi shundaki, yuqorida ham aytilganidek, tilni nutq tovushlarisiz, grammatik shakllarsiz va kommunikatsiya jarayonidan tashqarida tasavvur qilish mumkin emas. Nutq tovushlari tizimi, morfologik shakllar majmuasi va kommunikatsiya uchun xizmat qiluvchi sintaktik qurilmalar – hammasi birgalikda tilni, uning bir butun organizmini tashkil etadi. Shu bois so‘z tilning asosiy birligi sanaladi.

So‘zning funksional-semantik ko‘rinishlaridan biri ***atamadir***, ya’ni termindir. Termin (atama)ning material tomoni so‘z yoki so‘zlar birikmasidan tarkib topgan iboraga teng keladi. Biroq so‘z va atama o‘zaro farq qiladi. Bu farq shundaki, so‘z umumxalq mulki, u til jamoasining hamma ijtimoiy qatlamlari uchun bir xil xizmat qiladi. Termin esa umumxalq mulki sifatida emas, balki til jamoasining ayrim-ayrim ijtimoiy qatlamlari uchun xoslangan bo‘ladi. Bundan tashqari, atama yordamida xalq xo‘jaligi, fan va texnikaning muayyan tushunchalari nomlanadi.

Atamaning ma’no hajmi so‘znikiga nisbatan tor va uning iste’mol doirasi ham cheklangan bo‘ladi (bu haqda keyinroq batafsil ma’lumot beriladi). Shuningdek, so‘zning shakliy ifoda tomoni atamaning shakliy ifoda tomoni bilan hamma vaqt ham muvofiq kelavermaydi. Masalan, qishloq xo‘jaligi texnikasiga qarashli *paxta terish mashinasi, ariq qazish mashinasi, quvvat olish vali, moylash sistemasi* singari bir qator atamalar mavjud. Ular, birinchidan, rus tilidan kalkalash (tarjima qilish) yo‘li bilan o‘zlashtirilgan, ikkinchidan, birdan ortiq so‘z (*paxta, terish, mashina; quvvat, olish, val; moylash, sistema)* so‘zlardan tarkib topgan, uchinchidan, qishloq xo‘jaligi texnikasining aniq bir turi va uning muayyan qismlarini nomlagan; to‘rtinchidan, ularning iste’moli umumxalq uchun, uning barcha ijtimoiy tabaqalari uchun mo‘ljallanmagan. Shunga o‘xshash xususiyatlarni

turli xil fanlar sohasida ham uchratish mumkin. Chunonchi, o‘zbek tilshunosligida *otlarning kelishik shakllari, otlarning egalik shakllari; fe’l zamonlari, uzoq o‘tgan zamon fe’li; bog‘langan qo‘shma gap, ergash gapli qo‘shma gap, natija ergash gapli qo‘shma gap, bog‘lovchili qo‘shma gaplarni eslatuvchi bog‘lovchisiz qo‘shma gap* singari bir necha o‘nlab atamalar ishlatiladi. Ular ma’nosiga, ya’ni til mazmun jabhasiga ko‘ra, so‘zlardan farq qilmaydi. Biroq ularni shu holda, shu shaklda so‘zlarga tenglashtirish ham mumkin bo‘lmaydi.

Atama va so‘zlar tilning mazmun jabhasiga ko‘ra o‘xshash bo‘ladi, xolos. Atamalarning so‘zlar bilan til mazmun jabhasiga o‘xshashligining yana bir tomoni bor: atamalarda ham, so‘zlarda bo‘lgani kabi, dubletlilik, ko‘p ma’nolilik, antonimlik, sinonimlik va giponimlik xususiyatlari bo‘ladi.

Fikrimizni tilshunoslikka oid atamalar misolida dalillamoqchi bo‘lsak, bu fan mundarijasida *kategoriya, guruh, guruhlash, tasnif, tasniflash, tahlil* singari ko‘p ma’noli va ko‘p vazifali lug‘aviy birliklar; *qo‘shimcha va affiks, prefiks va oldqo‘shimcha, suffiks va ort qo‘shimcha, nisbat va daraja, gap va jumla, so‘z va leksema, unlilar va vokalizmlar, undoshlar va konsonontizmlar* singari dublet va sinonim (ma’nodosh) lug‘aviy birliklar*; jarangli va jarangsiz (undoshlar – **giperonimlarg**a nisbatan); til oldi va til orqa (umuman unli va undoshlarga – **giperonimlar**ga nisbatan); ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish (mustaqil so‘z turkumlari – **giperonimga** nisbatan)* singari giponim lug‘aviy birliklar; *ochiq va yopiq (bo‘g‘in), qattiq va yumshoq (undosh), bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli (gap), to‘liq va to‘liqsiz (gap)* singari antonim lug‘aviy birliklar mavjud.

Terminologik tizimda atamalarning shakldoshligi, ya’ni omonimiyasi alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Atamalar omonimiyasining bir ko‘rinishida umumxalq tiliga mansub oddiy so‘zlar bilan biror-bir fan va uning muayyan tarmog‘iga xos ayrim tushunchalarning nomi bir shaklga ega bo‘ladi: *tugun, band (adabiyotshunoslik); oy, quyosh, yulduz (astronomiya); o‘pka, jigar, yurak (fiziologiya va tibbiyot); qo‘ltiq, tekislik (geografiya)* va b. Ularning boshqa bir ko‘rinishida bir lug‘aviy shakl orqali bir necha fanlarga xos tushunchalar nomlanadi.

Masalan, *reaksiya* shaklidagi lug‘aviy birliklar ximiya, fiziologiya, tarix, siyosiy iqtisod; *assimilyatsiya* shaklidagi lug‘aviy birliklar tilshunoslik, botanika, etnografiya; *yadro* shaklidagi lug‘aviy birliklar fizika, botanika, matematika, tilshunoslik fanlari doirasidagi tushunchalar nomi sifatida xizmat qiladi.

Bu lug‘aviy birliklar anglatgan tushunchalar va ularning ma’nolari munosabatida hech bir aloqadorlik yo‘q. Shularni hisobga olgan holda, leksikologiyada atama va ular tizimini o‘rganuvchi maxsus tarmoq shakllangan. Bu tarmoq atamashunoslik deyiladi.

Shu narsa muhimki, so‘z va atama oralig‘idagi farq jiddiy emas: atama ham – so‘zning vazifaviy ko‘rinishlaridan biri. So‘z ham, atama ham – tilning nominativ vazifaga xoslangan birligi.

Yuqorida aytilganlardan chiqadigan xulosa shuki, leksikaning qaysi jabhasida bo‘lmasin, so‘z o‘rganiladi. Shuning uchun so‘z leksikaning eng muhim va markaziy lisoniy birligidir.

LEKSIKANING SISTEMALILIK XARAKTERI HAQIDA

Til ham, uning har bir sathi ham o‘ziga xos tizimdir, sistemadir. Sistema tabiiy va ijtimoiy hodisalarining barchasida mavjud.

Masalan, siz tahsil olayotgan oliygohni olaylik. U o‘ziga xos murakkab sistemadir. Bu sistemaning asosiy birligi – talaba va o‘qituvchilar. Talabalar ham, o‘qituvchilar ham bittadan yoki o‘ntadan emas. Ularning, ayniqsa, talabalarning, soni bir necha minglab bo‘lishi mumkin. Qolaversa, ular “ta’lim oluvchilar” nomi bilan bir umumiy xususiyatga ega. O‘qituvchilar ham shunday: millati, ilmiy darajasi, unvoni, yoshi va jinsidagi farqlardan qat’iy nazar, bir umumiy “belgi” – umumiy vazifaga ega: yoshlarga ta’lim berish va ularni tarbiyalash.

“Oliygoh”ga xos sistemalilikning yana bir tomoni shundaki, u “guruh – kurs – kafedra – fakultet – rektorat” tartibidagi bosqichlardan iborat. Shulardan birisiz “oliygoh”ning bir butunligi tasavvur etilmaydi. Bu o‘quv maskanining ishchi jamoasiga kelsak, ularning sistemasiga xos “*talaba – guruh – guruh boshlig‘i –*

guruh rahbari – laborant – bosh laborant – asissent – o‘qituvchi – katta o‘qituvchi – dotsent – professor – kafedra mudiri – dekan o‘rinbosarlari – dekan – rektor o‘rinbosarlari (prorektorlar) – rektor” tartibidagi bosqichlarga duch kelamiz. “Oliygoh” misolidagi sistemadan shu narsani sezish mumkinki, “oliygoh” bir necha pog‘onali ichki sistemalardan tarkib topuvchi yaxlit, bir butun sistema ekan, sistemalar sistemasi ekan. Chunki har bir kurs, har bir bo‘lim, har bir fakultet shu bir butun “oliygoh” sistemasi ichidagi, uni tashkil etuvchi tobe tagsistemalardir.

Til ham ana shunday sistemadir. Til sistemasida lug‘aviy qatlam o‘ziga xos mavqe va ahamiyatga ega. U tilning boshqa sistemalari bilan chambarchas bog‘liq holatda mustaqil faoliyat ko‘rsatadi.

Leksika boshqa lisoniy hodisalar sistemasidan farq qiladi. U ochiq sistemadir. Chunki lug‘at tarkibi hamma vaqt o‘zgarishda bo‘ladi. Iste’moli so‘nib xiralashgan lug‘aviy birliklar undan chetlashib, uning o‘rni boshqa lug‘aviy birliklar hisobiga evaz qilina boradi.

Masalan, yaqin vaqtlarda o‘zbek tili lug‘at tarkibida *kommunistik partiya, kommunist, komsomol, partiya byurosi, qayta qurish, kommunizm, raykom, obkom, kolxoz, sovxoz, pioner* singari so‘zlar bo‘lib, tilimizda faol ishlatilar va ular o‘zbek tili leksikasining zamonaviy qatlamida o‘rganilar edi.

Endilikda ularning iste’moli so‘nib, ularning o‘rni lug‘at tarkibimizga kirib kelayotgan *uzluksiz ta’lim, auditor, lizing, raqobatbardosh, qo‘shma korxona, ishbilarmon, sarmoya, provayder, internet, internet tarmog‘i, diler, dizayner, tadbirkorlik, masofaviy o‘qitish, kollej, akademik litsey, bakalavr, magistr* kabi yangi lug‘aviy birliklar hisobiga to‘ldirilib bormoqda.

Leksik (lug‘aviy) sistema til birliklarining har xil munosabatlaridan tashkil topadi. Bu munosabatlarning asosiylariga paradigmatik, sintagmatik va ierarxiyali (silsilali) munosabatlar kiradi.

Ana shu munosabatlarning amali va majmuasi tilning, uning har bir sathining bir butunligini, yaxlitligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Paradigmatika (paradigmatik munosabatlar)

Paradigmatik munosabatlar paradigmatika qamrovida bo‘ladi. Paradigmatika deyilganda, tilning u yoki bu sathiga xos birliklarining muayyan umumiy, o‘xshash lisoniy belgi-xususiyatlar asosida guruhlanishi tushuniladi. Masalan, p, ch, sh, k, t va h.k. nutq tovushlarining hosil bo‘lishida shovqinning yetakchi va hal qiluvchilik asosida jarangsiz undoshlar; b, m, n, g, d va h.k. tovushlarning hosil bo‘lishida ovoz (un)ning yetakchi va hal qiluvchilik belgisi asosida jarangli undoshlar sifatida guruhlanishi tilning fonetik sathiga xos paradigmatika ko‘rinishlaridandir.

Morfologik sath ham o‘ziga xos paradigmatik guruhlardan tashkil topadi. Masalan, o‘qituvchi, quruvchi, haydovchi, tabib, qassob, me’mor va h.k.lar otlarning shaxs ma’nosini bildiruvchi; temir, qum, tosh, daraxt, shox va b.lar narsa-predmet ma’nosini bildiruvchi guruhlarini hosil qiladi. Yoki ***qalam*** so‘zi – leksemasining *qalam, qalamning, qalamni, qalamga, qalamda, qalamdan kabi* ko‘rinishlari har xil shaklga ega bo‘lsa-da, ular shu so‘z – leksema (***qalam)***ning kelishik kategoriyasiga xos paradigmatikasidir. Bular tilning morfologik sathga xos paradigmatik to‘dalari (uyalari) sanaladi.

Sintaktik sathga xos paradigmatikaga kelsak, ular ham sintaksisning har bir sathida mavjud va ularning majmuasidan tilning sintaktik qurilishi tarkib topadi. Masalan, egani hosil qiluvchi paradigmatik guruhga, ma’nosidagi farqlardan qat’iy nazar, bosh kelishigi shaklidagi ot, olmosh va otlashgan so‘zlarning barchasi kiradi. Yoki otli gap paradigmatik guruhi (paradigmatikasi)ga kesimi fe’ldan boshqa so‘zlar orqali ifodalangan hamma gaplar tegishli bo‘ladi.

Lug‘aviy sath paradigmatik tizimini tilning ham ifoda, ham mazmun jabhalarida bir xil va faol ko‘rish mumkin. So‘zlardagi birdan ortiq ma’nolar (polisemiya) va ularning tizimi; birdan ortiq har xil ma’nolarning mushtarak, o‘zaro o‘xshash (paronimiya) yoki bir xil shakllarda ifodalanishi (omonimiya) lug‘aviy sathning ma’no jabhasiga xos paradigmatik guruhlarni hosil qiladi. Masalan, *etak* so‘zi “*kiyimning tugash qismi”*, “*biror tepalik yoxud tog‘ning yer – tekislik bilan tutash qism”i, “biror-bir marosim yoki tadbirning yakunlanish lahzasi”* va h.k. bir qator har xil tushunchalar bilan aloqador ma’nolarni bildiradi.

Etak so‘zining har bir ma’nosi shu so‘zning alohida-alohida lug‘aviy-mazmuniy varianti (LMV) orqali ifodalanadi. Ana shu lug‘aviy-mazmuniy variantlar *etak* so‘zining til mazmun jabhasiga xos paradigmatikasi, paradigmatik uyasi, guruhi sanaladi.

Lug‘aviy omonimiyada ham paradigmatikaning til mazmun sathiga xos turini ko‘ramiz. Masalan, “*ko‘k”* so‘zi alohida-alohida uch mustaqil shakl – leksemani o‘z ichiga oladi: 1 – *ko‘k: “osmon”, 2 – ko‘k: “rang”, 3 – ko‘k: “ovqatga xushbo‘y ta’m beradigan o‘simliklar, ko‘kat”*. Fonetik tarkibi bir xil bu uch shakl – uch leksemada biri boshqasi bilan aloqasi bo‘lmagan uch ma’no ifodalangan. Ana shu uchta ma’noning majmuasi “ko‘k” lug‘aviy omonimining paradigmatikasi hisoblanadi.

Lug‘aviy tizim birliklarining til ifoda jabhasiga xos paradigmatikasi sinonimiya, antonimiya hodisalari amalida ko‘zga tashlanadi. Bir-biriga o‘xshash yoki bir xil ma’nolar fonetik qurilishda farq qiluvchi har xil lug‘aviy birliklar vositasida ro‘yobga chiqadi.

Aft, bashara, yuz, bet, chehra, turq, visol so‘zlari inson organizmi bosh qismining old tomoni ma’nosini anglatishi nuqtai nazaridan, umumiylikka ega. Bir umumiy ma’noda tutashuvchi *aft, bashara, yuz, bet, chehra, turq* va *visol* so‘zlari lug‘aviy sath birliklarining ifoda jabhasiga xos paradigmatik guruhidir, paradigmatikasidir.

O‘zaro zid ma’nolarda tutashuvchi *katta* va *kichik, yaxshi* va *yomon, uzoq* va *yaqin, issiq* va *sovuq, qattiq* va *yumshoq* tipidagi bir qator lug‘aviy birliklar ham tilning ifoda jabhasiga xos paradigmatik qator (uya)larni hosil qilgan.

Lug‘aviy sathga xos paradigmatikaning yuqoridagilardan boshqa yana bir qator ko‘rinishlari mavjud. Ular giperonim (giponimlar paradigmasi), partonim, graduonim, funksionim va sh.k. hodisalar doirasida, shu hodisalarning o‘ziga xos lug‘aviy-mazmuniy sistemalilik xususiyatini belgilash uchun xizmat qiladi.

Sintagmatika (sintagmatik munosabatlar)

Sintagmatika – bu nutq oqimida bir lisoniy maqomdagi ikki unsurning o‘zaro munosabatidir. Morfema va so‘zlar tarkibida tovush va bo‘g‘inlarning, o‘zak va affikslarning; yasalma – derivatlar tarkibida yasovchi asos va yasovchi vositalarning; matn (kontekst) tarkibida takt, gap bo‘laklari (sodda gaplar sathida) va predikativ qismlarning (qo‘shma gaplar sathida) o‘zaro munosabati sintagmatika va sintagmatik munosabatlardir.

Leksikada, ya’ni lug‘aviy sathda ham sintagmatikaning o‘ziga xos ko‘rinishi amal qiladi. Ma’lumki, har qanday sintaktik butunlik, u so‘z birikmasimi yoki gapmi, bundan qat’iy nazar, so‘zlardan, ularning o‘zaro birikuvidan tashkil topadi. Sintaktik butunliklarning hosil bo‘lishida tovushlar kompleksidan iborat shakliy birliklardan tashqari, shu shakliy birliklar tufayli anglashiluvchi ma’nolar ham o‘zaro munosabatga kirishadi. Bu jarayonda so‘zlarning, shakliy birliklarning, ma’no mosligi, mazmuniy bog‘lanishi ham muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Matn tarkibidagi lug‘aviy birliklar ma’no jihatdan moslashmasa, bog‘lanmasa, muayyan kommunikativ maqsadni ko‘zda tutgan matn hosil bo‘lmaydi. So‘zlarning matn tarkibida ma’no jihatdan bog‘lanishi mazmuniy (semantik) valentlik deb ataladi. Semantik (mazmuniy) valentlik zaminida tilning lug‘aviy sath hodisalariga xos sintagmatikasi (sintagmatik munosabatlari) ta’minlanadi. Belgi-xususiyat ma’nolariga ega bo‘lgan so‘zlarning ot (bunda sifatga xos ma’nolar nazarda tutiladi) va fe’l (bunda ravish va unga vazifadosh so‘zlar ma’nosi nazarda tutiladi) kabi so‘zlarga tobelanib bog‘lanishida o‘zaro bog‘lanayotgan so‘zlararo mazmuniy moslik mavjud va shu asosda matn vujudga keladi. Leksikadagi ***sintagmatika*** deyilganda, turli lug‘aviy-grammatik kategoriyalarga mansub so‘zlar ma’nosidagi ana shunday mantiqiy-lisoniy muvofiqlik tushuniladi. Masalan, “*Oppoq orzularga burkanib, to‘lib, Ezguliklar olib kelar Yangi yil”* (Davlat Yor) matnida *Yangi yil va olib kelmoq*, *oppoq va orzular, ezguliklar va olib kelmoq, burkanib va olib kelmoq, to‘lib va olib kelmoq* so‘zlari shakliy jihatdan ham, mantiqiy-lisoniy jihatdan ham o‘zaro bog‘langan. Bu so‘zlarning ma’no jihatdan mantiqan muvofiqlashuvi va birikuvi til lug‘aviy sathiga xos sintagmatikaga misol bo‘ladi.

Ierarxiyali munosabat

Ierarxiyali munosabat til birliklari hosil bo‘lishining bosqichma-bosqichli bog‘lanishiga asoslanadi. Buni pog‘onali, o‘zaro shartlangan munosabat deb ham ataladi. Ierarxiyali munosabatlarning mantiqiy asosi ham tashqi olam va uning narsa-hodisalariaro bog‘lanishlardir. Masalan, “zamon” bilan bog‘liq tushunchalarni olaylik: har bir asr 100 yilni o‘z ichiga oladi. Har bir yil to‘rt fasldan, o‘n ikki oydan iborat. Har bir oy 30 – 31 sutka bo‘ladi. Sutka tun va kunga, kun va tun soatlarga, soatlar minutlarga, minutlar esa sekundlarga taqsimlanadi. Ko‘rinadiki, “asr” deb atalgan tushuncha bir necha bosqich qismlardan tashkil topdi.

Tilning sistemaliligi ham ana shunga o‘xshaydi. Bunda lisoniy sathning quyi bosqich birliklari uning yuqori bosqich birliklarini shakllantirish vazifasini bajaradi. Masalan, fonetika sathini oladigan bo‘lsak, tovushlardan bo‘g‘inlarning, bo‘g‘inlardan so‘z va taktlarning, taktlardan frazalarning hosil bo‘lishi ierarxiyali munosabatga kiradi.

Lug‘aviy sathda ierarxiyali munosabatning yana o‘ziga xos ko‘rinishi amal qiladi. Oddiy so‘zlardan ularning muayyan mazmunga ega maydonlari vujudga keladi. Mazmuniy maydon zaminida lug‘aviy birliklarning mavzuiy guruhlari, mavzuiy guruhlar yig‘indisidan esa, yirik lug‘aviy-mazmuniy guruhlar paydo bo‘ladi. Yirik mavzuiy guruhlarning majmuasi, yig‘indisi asosida tilning lug‘at tarkibi, leksikasi shakllanadi. Zero, til leksikasi son-sanoqsiz lug‘aviy-mazmuniy guruhlar uyushmasi va ulardan tarkib topgan bir butunlikdir. Masalan, *quyon* so‘zi xonakilashgan yovvoyi hayvon ma’nosi bilan (arxisema) *qo‘y* yoki *echki* so‘zlari bilan kichik bir lug‘aviy-mazmuniy maydonda birlashadi. Bu guruh “*go‘shti iste’mol qilinadigan”* semasi bilan *qoramol, tuya, yilqi (ot)* so‘zlari bilan o‘zidan yirikroq boshqa bir lug‘aviy-mazmuniy maydonga tobelanadi. Bora-bora bunday guruhlar *“hayvon”* semasiga ega bo‘lgan boshqa hayvon nomlari bilan qo‘shilib, birlashtiruvchi, mushtarak ma’nosi *“hayvon” (arxisema)* bo‘lgan katta bir guruhni

tashkil qiladi. Lug‘aviy birliklarning silsilali tarzda kichik guruhdan yirik guruhlarni hosil qilish jarayonlari va ularning hosila natijalari til leksikasiga xos ierarxiyali munosabat deyiladi.

LUG‘AVIY SEMASIOLOGIYA

Ma’lumki, tilning mazmun jabhasi ham, uning ifoda jabhasi kabi, har bir sathda shu sathga xoslangan ma’noviy birliklardan tashkil topadi. Tilning barcha sathlariga xos ma’noviy birliklar majmuasini, sistemasini, semasiologiya o‘rganadi. Shu bois semasiologiyaning fonetik, morfem, so‘z yasalishi, morfologik va sintaktik sathlarga taalluqli tarmoqlari, shohobchalari, mavjud: *fonetik semasiologiya, morfem semasiologiya, so‘z yasalish semasiologiyasi, morfologik semasiologiya* va *sintaktik semasiologiya* kabi.

Tilning lug‘aviy sathga xos mazmun jabhasi lug‘aviy semasiologiyada o‘rganiladi. Lug‘aviy semasiologiyaning asosiy birligi va obyekti – bu so‘zlar ma’nosidir. Ular so‘zning mazmun jabhasiga qarashli asosiy birliklardir. Bu ma’noviy birliklar sememalar deb ataladi. Lug‘aviy semasiologiya lug‘aviy sememalarni o‘rganadi.

SO‘Z VA UNING MA’NOSI

So‘z ma’nosining semiotikaga aloqasi

Til va uning birliklari semiotik xarakterdagi ijtimoiy hodisalardir. Semiotik hodisalar ishora, ramzlar xarakterida bo‘ladi. Ularni ***semiotika*** fani o‘rganadi. Tilshunoslik ham semiotikaga daxldor va unga yaqin fandir. Uning fonemadan yirik barcha birliklari (morfema, so‘z, frazema, so‘z birikmasi va gap) ramzlik (ishoralik) xarakteriga ega bo‘ladi. Shu bois tilshunoslik fanining bosh predmeti sanaluvchi tilga ishoralar (ramzlar) tizimi sifatida qaraladi. Bu tizimda ham so‘z markaziy hodisa hisoblanadi. So‘zning ishora (ramz)lik xususiyati shundaki, uning

o‘zaro munosabatdosh va taqozadosh ikki tomoni – ikki jabhasi mavjud: ularning biri ifoda jabhasi bo‘lsa, ikkinchisi – mazmun jabhasidir.

So‘z ifoda jabhasi bilan tasavvur etiladi, eshitiladi. Shu tomoni bilan so‘zlar pertseptiv vazifa bajaradi. So‘zning tovush va tovushlar birikmasidan tarkib topishi uning ana shu, ya’ni ifoda jabhasidir. So‘z ifoda jabhasiga nisbatan ***leksema*** deb, mazmun jabhasiga nisbatan esa, ***semema*** deb ataladi. Masalan, *uy, inson, ona, daraxt* so‘zlarining ifoda jabhasini shu so‘zlar tarkib topgan tovushlar tashkil qilgan: ular *uy, inson, ona, daraxt* **leksema**laridir. Anglatgan ma’nolariga ko‘ra, ular *uy, inson, ona, daraxt* **semema**laridir.

Leksemalarning nutqda voqelangan real ko‘rinishiga nisbatan ***leks*** atamasi ishlatiladi. Masalan, *qalam, qalamning, qalamni* ***qalam*** leksemasining nutqda matn talabiga ko‘ra voqelana oladigan uch ***leksi***dir.

Ayni o‘rinda ***semema*** hodisasi ham til mazmun jabhasining eng kichik, elementar birligi sifatida o‘ziga xos qurilmadir. Bu qurilmaning birliklari ***sema***lar deb ataladi, ya’ni **semema** semalar ***yig‘indisidir.*** Masalan, “***ota”*** leksemasining invariant LMVsining sememasi “*inson, kishi”, “bevosita qarindosh”, “erlik jinsida”, “tug‘diruvchi”, “oila boshlig‘i”, “so‘zlovchidan katta”* va h.k. semalardan tarkib topgan.

So‘zning ifoda va mazmun jabhalari (*leksema va sememalari majmuasi, yig‘indisi*) birgalikda ular (so‘zlar)ning *ishoralik, ramzlik* maqomini belgilaydi.

Demak, so‘z ma’no tomoni bilan tilning mazmun jabhasiga qarashli bo‘ladi.

So‘z shakl tomoni bilan tilning ifoda jabhasida qanday ahamiyat kasb etsa (so‘zlar faqat tovushlar yordamida eshitiladi, ya’ni tasavvur etiladi), u ma’no tomoni bilan tilning mazmun jabhasida ham ana shunday muhim ahamiyat va mavqega ega bo‘ladi: ***til uchun leksema qanday muhim va zarur sanalsa, semema ham shunday muhim va zarurdir***. Zero, til amalini so‘zlarsiz, ularning odatiy (*uzual*) va nutqda kasb etuvchi noodatiy (*konnotativ, okkozional*) ma’nolarisiz tasavvur etish mumkin emas.

Lug‘aviy birliklar *uzual* va *konnotativ (okkozional)* ma’nolariga ko‘ra, til yoki nutq hodisalari sifatida farqlanadi. Uzual ma’nolar lug‘aviy birliklarning

umumtilda rasmiylashgan semantik qiymati bo‘lib, shu ma’no asosida so‘zlar til birliklari sanaladi. So‘zlarning konnotativ (okkozional) ma’nolari esa, nutqda individual tarzda vujudga keladi, umumxalq tilida ommaviy tarzda rasmiylashmaydi. Bunday ma’nolarga ko‘ra, so‘z, ya’ni lug‘aviy birliklar nutq hodisasi sifatida tavsiflanadi.

So‘zning ifoda (shakliy) jabhasi har xil tovushlardan tarkib topib murakkab bo‘lganidek, uning ifoda jabhasi ham murakkab: har xil ma’nolar summasidan iborat bo‘ladi.

Til birliklari ramziy, ishoraviy xarakter kasb etar ekan, ularning mazmun jabhasi tilshunoslikning semantika (yoki semasiologiya) bo‘limida o‘rganiladi. Semantika (semasiologiya), til sathlariga ko‘ra, *frazem semantika, morfem semantika, so‘z yasalish semantikasi, lug‘aviy (leksik) semantika, morfologik semantika, sintaktik semantika, uslubiy semantika* kabi guruhlarga ajraladi.

So‘z ma’nolari lug‘aviy semantika (semasiologiya)da o‘rganiladi. U o‘ziga xos serqirra va murakkab mazmuniy qurilmadir.

Lug‘aviy ma’no va uning xususiyatlari

So‘z ma’nosining o‘ziga xos murakkab va serqirra mazmuniy qurilma ekanligi shundaki, u bir qator ichki unsurlardan tarkib topadi. So‘zning grammatik, uslubiy va pragmatik ma’nolari ham shu qurilma tarkibida bo‘ladi. Bu qurilma so‘zning semantik strukturasi deyiladi. So‘z semantik strukturasining markazida lug‘aviy ma’no turadi.

Lug‘aviy ma’no vositasida obyektiv borliqning muayyan real yoxud noreal narsa-hodisaslari, shu narsa-hodisalarning belgi-xususiyatlari, ularning o‘zaro munosabatlari va boshqalar anglashiladi. Lug‘aviy ma’no, yuqorida ham aytilganidek, biror-bir denotatsiyaga asoslanadi. Denotatsiyaning asosini denotat tashkil qiladi.

Denotat deyilganda, so‘z ma’nosining nolisoniy (ekstralingvistik) asosi tushuniladi. Bu asos bizni qurshab turgan borliq narsa-hodisalari va ularning belgi-

xususiyatlaridir. Masalan, *chiroq* so‘zining denotati ma’lum bir kichik hududni yorituvchi predmetdir. Ana shu predmetning ongda ***ch, i, r, o, q*** fonemalari yordamida tasavvur etilishi “*chiroq”* so‘zi-leksemasining lug‘aviy ma’nosidir. Bu ma’no, bizni qurshab turgan borliqning aniq bir narsa-predmeti (denotati) bilan aloqador bo‘lganligi uchun, denotativ ma’no deb ataladi. *Denotativ ma’no*ni *referent ma’no* deb ham yuritiladi. Chunki *denotat* va *referent* o‘zaro dublet atamalardir. Lug‘aviy ma’nolar yordamida obyektiv borliqning narsa-hodisalari va ularning belgi-xususiyatlari atalgani, nomlangani uchun, ular fanda *nominativ ma’no*lar sifatida ham rasmiylashgan.

Nominativ ma’noga ko‘ra, so‘zning tildagi asosiy vazifasi belgilanadi. Bu vazifa – nominativlik, ya’ni atamalilikdir.

So‘zning nominativ ma’nolari negizida uning signifikativ ma’nolari shakllanadi. *Signifiktiv ma’no* nominativ ma’nolarning yuqori (bosqich)da mavhumlashgan hosilasidir. Signifikativ ma’noga ko‘ra bizni qurshab turgan obyektiv borliq narsa-hodisalari umumlashgan va mavhumlashgan holda tasavvur etiladi. Signifikativ ma’no tufayli nominativ ma’no (to‘g‘rirog‘i, *denotativ* ma’no) ***tushuncha*** bilan bog‘lanadi.

So‘zning mazmun strukturasida denotativ ma’nodan tashqari, *konnotativ ma’no* ham mavjud bo‘ladi. Konnotativ ma’no nominativ ma’noga “eshdosh” ustama ma’nodir. Konnotativ ma’no tufayli so‘z emotsional-ekspressiv qiymatga ega bo‘ladi. U emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik ham deyiladi. Konnotativ ma’noga ko‘ra so‘zlarning pragmatik-uslubiy vazifasi belgilanadi.

Konnotativ ma’nolar tufayli vujudga keluvchi emotsional-ekspressivlikning ijobiy va salbiy turlari mavjud. Ularni ijobiy bo‘yoqdorlik yoxud salbiy bo‘yoqdorlik deb ham ataladi.

Konnotativ ma’nolarning ifodalanish usul va vositalari ham har xil. Lug‘at tarkibining ayrim qatlam so‘zlari yo salbiy, yo ijobiy xarakterdagi bo‘yoqdorlikka ega bo‘ladi.

Lug‘aviy ma’no va tushuncha munosabati

Tushuncha tafakkur shakli sifatida logik kategoriyalardan biridir. Tushuncha tufayli, uning vositasida, ongda obyektiv borliq narsa-hodisalari va ular munosabatining o‘ta umumlashgan va mavhumlashgan tasavvuri shakllanadi. Ongda shakllangan ana shu tasavvurlar so‘zlar vositasida lisoniy maqomga ega bo‘ladi. Muhimi shundaki, obyektiv borliqda real uchramaydigan, o‘z shakliy dennotatlariga ega bo‘lmagan hodisalar ham ongda tushuncha sifatida shakllanaveradi. Ayni o‘rinda obyektiv borliqda real mavjud bo‘lmagan bunday hodisalar ham tilda so‘z orqali lisoniy tusga kiradi. Masalan, *sevgi, muhabbat, yaxshilik, ruhiyat, omad, jin, alvasti, shayton, mehr* singari bir guruh so‘zlar ana shunday tavsifdadir.

Shunisi ham borki, so‘z va tushuncha munosabatida muvofiqlik, mutanosiblik yo‘q. Bir so‘z birdan ortiq tushunchalarni ifodalashi mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlar va ularning amali buning yorqin misolidir. Shuningdek, tilda tushuncha ifodalamaydigan so‘zlar ham kam emas. Olmoshlar, yordamchi so‘zlar tushuncha ifodalash vazifasidan chetda. Shu dalillarning o‘ziyoq so‘z va tushunchaning teng kelmasligi va ularning har xil fanlarga – so‘zning tilshunoslik, tushunchaning mantiqqa mansubligini ko‘rsatadi. Demak, so‘zning signifikativ ma’nolari va ular bilan bog‘liq vazifalaridagina so‘z va tushuncha munosabatida (mutlaq darajada bo‘lmasa-da) muvofiqlik bo‘lishi mumkin. So‘z ma’nolari ham tushuncha kabi mavhum va umumiydir. Lekin so‘z hamda tushunchaga xos umumiylik va mavhumlik munosabatida ham sezilarli farq mavjud. So‘z ma’nosidagi mavhumlik va umumiylik bir til va uning jamoasi ongida bo‘ladi, milliy xarakter kasb etadi. Tushunchaga xos umumiylik va mavhumlik – nomilliy, baynalmilal, ya’ni umumbashariydir.

Xullas, signifikativ ma’nolar tufayli so‘z va tushuncha munosabatida ma’lum bir muvofiqlik bo‘lsa-da, u doimiy va mutlaq emas.

Signifikativ ma’no vositasida so‘z ifodasidagi nominativ ma’nolar umumlashadi. Ayni o‘rinda signifikativ ma’no so‘zlarning yana boshqa nominativ ma’nolar kasb etishiga turtki bo‘ladi, ko‘p ma’nolilik uchun zamin hozirlaydi. Masalan, *“talaba”* so‘zi dastlab “*oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida tahsil*

oluvchi shaxs” ma’nosi bilan rasmiylashgan bo‘lsa, endilikda bu so‘z kasb-hunar kollejlari, akademik litsey, umumta’lim maktablari va muayyan maqsadlarni ko‘zda tutgan ayrim qisqa kurslarda ta’lim oluvchilarga nisbatan ham ishlatiladi. Demak, “***talaba”*** signifikatining doirasida *“tahsil oluvchi shaxs”* semasiga ega yana boshqa lug‘aviy (nominativ, denotativ) ma’nolar ham vujudga keladi**.** ***Talaba*** so‘zi kasb etgan har bir ma’no shu so‘zning alohida-alohida lug‘aviy-mazmuniy variantlari (LMV) sifatida ish ko‘radi.

Lug‘aviy ma’no va lug‘aviy vazifa munosabati

Signifikativ ma’nolar asosida so‘zning nominativ vazifasiga hamrohlik qiluvchi ustama vazifasi vujudga keladi. Uni so‘zning *signifikativ vazifasi* deyiladi. Zero tilda ba’zan vazifa va ma’no uyg‘unlashadi. Bu hol til hodisalari taalluqli bo‘lgan lisoniy kategoriyalar ierarxiyasi (silsilasi)ning yuqori bosqichida ko‘zga tashlanadi: signifikativ ma’no lug‘aviy ma’nolar ierarxiyasida denotativ ma’nolarga nisbatan yuqori bosqichda turadi.

Biroq shunisi ham borki, lug‘aviy sathda ma’no va vazifa tushunchalari hamma vaqt ham teng kelavermaydi. Ko‘p hollarda ular farqlanadi. Lug‘aviy birliklarning ko‘p vazifaligi ularning ko‘p ma’noliligi bilan mutanosib emas. Ko‘p vazifalilik so‘zning boshqa kategorial guruhlar (so‘z turkumlari) ixtiyoriga o‘ta olishi imkoniyatlari bilan bog‘lanadi. Masalan, yaxshi, ozoda, tetik va h.k. so‘zlar sifat turkumiga mansubdir. Ularning sintagmatik ko‘lami keng bo‘lib, hech bir shakl o‘zgarishisiz ravish o‘rnida ham kela oladi: *yaxshi kitob – yaxshi yashamoq, ozoda kiyim – ozoda kiyinmoq, tetik odam – tetik yurmoq* va b. Bunday jarayonlarda so‘z (lug‘aviy birlik)larga xos ko‘p vazifalilik namoyon bo‘ladi. Lug‘aviy ko‘p vazifalilik ot turkumiga xos so‘zlarning sifatlarga xos sintagmatik xarakter kasb etishida ham mavjud. Masalan, *tilla oltin, kumush, g‘isht, temir, yog‘och* kabi so‘zlarning *tilla tish, oltin davr, kumush qoshiq, g‘isht devor, temir darvoza, yog‘och ko‘prik* singari sintagmatik qurshovlarda kelishi lug‘aviy sathdagi ko‘p vazifalilikka kiradi.

Har bir so‘z turkumiga xos kategorial ma’nolar (masalan, ot turkumiga xos so‘zlarning kategorial ma’nosi – predmetlik; fe’lniki – harakat, holat jarayoni; sifatniki – predmetlarning belgi-xususiyati; ravishniki – harakat-holatga xos belgi-xususiyat va b.) til mazmun jabhasining mavhumlashgan yuqori bosqichini tashkil qiladi. Shu jihatdan so‘zlarning o‘z turkumidan boshqa turkum so‘zlari o‘rnida kelishi lug‘aviy sathga xos ma’no va vazifada o‘zaro muvofiqlik va tenglikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Lug‘aviy ma’noning ikki jabhasi

So‘z ma’nolari o‘zaro qarama-qarshi ikki yo‘nalishda o‘rganiladi. Bu yo‘nalishlar asosida lug‘aviy semantikaning biri boshqasi bilan munosabatdosh ikki aspekti, ikki jabhasi belgilanadi: 1) semasiologik jabha (aspekt); 2) onomasiologik jabha (yoki aspekt).

So‘z ma’nosi semasiologik jabha nuqtai nazaridan o‘rganilganda, o‘rganish (tahlil) asosi sifatida so‘z-ramz (ishora)ning shakli xizmat qiladi: tahlil shakldan uning mazmuni tomon yo‘naltiriladi, ya’ni shakl (fonetik qobiq) orqali ma’no qidiriladi. So‘z ma’nosi onomasiologik nuqtai nazardan o‘rganilganda, o‘rganish asosi vazifasini, aksincha, ramziy shakl (fonetik qobiq) emas, balki ma’no, mazmun o‘taydi: tahlil ma’nodan shaklga qarab yo‘naladi, ma’nodan shu ma’noga muvofiq shakl qidiriladi. Masalan, *o‘qituvchi* so‘zi va uning lug‘aviy ma’nosini semantikaning keltirilgan ana shu ikki jabhasi asosida o‘rganadigan bo‘lsak, quyidagicha natijaga ega bo‘lamiz: 1) ***o‘qituvchi –*** *“o‘quv-tarbiya maskanlarida ta’lim beruvchi shaxs”* (semasiologik jabha); 2) “*keng ma’nodagi murabbiy”, “ustoz”, “foydali maslahat beruvchi”, “ibratli ishlarda namuna bo‘luvchi shaxs”, “ota-ona”, “maktab”* va b. – ***o‘qituvchi*** (onomasiologik jabha). Boshqacha aytganda, semasiologik jabhada lug‘aviy tahlil ***leksemadan*** sememalar tomon yo‘nalgan bo‘ladi; onomasiologik jabhada esa, u ***sememadan*** leksemalar tomon yo‘naladi.

Bulardan tashqari, so‘zning mazmun jabhasida uch xil ma’no – uch xil sema bo‘ladi. Bular so‘z ma’nosining: a) atash semasi; b) ifoda semasi; v) vazifa semasi. So‘z ma’nosining atash semasi yetakchi semadir. U so‘zning nominativ ma’nosi bilan bog‘lanadi; ifoda semasi esa, so‘z ma’nosining uslubiy bo‘yoq bilan aloqador unsurdir. So‘zning vazifa semasi lug‘aviy birlikning sintagmatik qurshovda ishg‘ol etgan mavqei bilan aloqador bo‘ladi (masalan, *erkin* so‘zi sintagmatik qurshovda ot yoki fe’l oldidan kelsa, uning yo predmetga, yo harakat-holatga xos vazifa semasi faollashgan, voqelangan bo‘ladi). Lug‘aviy birliklar ma’nosi bilan bog‘liq bu xususiyatlarning barchasi semantikaning semasiologiya jabhasiga qarashli hodisalardir.

Xullas, lug‘aviy semantikaning semasiologik jabhasida muayyan fonetik shakldan unga muvofiq va munosib ma’nolar qidirilsa, onomasiologik jabhasida, aksincha, ma’lum bir ma’no (mazmun)dan unga muvofiq va munosib fonetik shakl (so‘z)lar qidiriladi. Semasiologik jabhada shakl kam, ma’no ko‘p bo‘ladi; onomasiologik jabhada ma’no kam, uni ifodalovchi shakl ko‘p bo‘ladi.

Lug‘aviy semantikaning bu ikki jabhasi leksikografik tipologiyada ham farqlovchi muhim ahamiyat kasb etadi. Semasiologik jabha va uning moyalari izohli lug‘atlar tuzishda, onomasiologik jabha va uning moyalari esa ideografik va sinonimik lug‘atlar tuzishda qo‘l keladi. Ideografik lug‘atlar odatda so‘zlarning lug‘aviy-mazmuniy maydonlari asosida tuziladi. Shu bois ham onomasiologik jabhada so‘zlarning lug‘aviy-semantik guruhlanishi bilan aloqador lisoniy imkoniyatlar o‘rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdaliyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent, 2022. – 202 b.

2. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – T., 2023.

3. Sayfullayeva R., Mengliyev B., v.b. Hozirgi o‘zbek tili. Darslik. – Toshkent: Zebo print, 2021. – 420 b.

4. Sharipov F. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2024.

5. Uralov A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021.

6. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiv tili. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O‘zMU, 2013.

7. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – T., 1995.

8. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T., 2020.

9. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Innovatsion rivojlanish, 2020.

10. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet, 2009.

11. www.guldu.portal.uz

12. www.ziyonet.uz

13. www.unlibrary.uz

14. https://lex.uz/